

O‘ZBEK ESTRADA SAN’ATI

Oyto‘rayev Azizxon

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Musiqa ta’limi va san’ati magistratura yo‘nalishi 2 bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Yevropa va Sharq madaniyatining zamonaviy yo‘nalishlari an‘analarini o‘zida mujassam etgan milliy estrada san’atining tarixi, ko‘rinishlari, hamda madaniyatimizdagi o‘ziga xos o‘rni haqida ma’lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, estrada san’ati, madaniyat, janr, muloqot, kuy va qo‘shiqlar

O‘zbekiston musiqa sahnasi bugungi kunda Yevropa va Sharq madaniyatining zamonaviy yo‘nalishlari an‘analarini o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos hodisadir. XXI asrga ishonch bilan qadam qo‘ygan O‘zbekiston milliy sahnasi o‘zining betakrorligi, serqirraligi va ijodiy yo‘nalishlari rang-barangligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. O‘zbekistonning zamonaviy musiqa sahnasining milliy qiyofasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodining an‘anaviy shakl va janrlari muhim rol o‘ynadi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari XX asrning ikkinchi yarmi musiqa hayotida yangi hodisaga asos bo‘ldi. Shu bilan birga, estrada orkestrlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan estrada musiqasining yangi shakllari va uslublari paydo bo‘ladi. Bular jumlasiga instrumental va vokal-instrumental ansambllar (VIA) kiradi.

Musiqiy-badiiy amaliyotda milliy va baynalmilal unsurlarning o‘zaro ta’siri jarayoni kelgusida o‘zbek milliy sahnasining milliy o‘ziga xosligini shakllantirishda va bu boradagi keyingi yutuqlarida asosiy o‘ringa aylanadi. Yangi san’at xalqning siyosiy va ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan yangi tendentsiyalarni, uning g‘oyalarini aks ettirishi kerak edi va aslida u tomoshabinlar bilan muloqot qilishning yangi shakli bo‘lib, u o‘sha paytdagi hukmronlikdan farq qiladi.

2020-yil 2-dekabrda Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilingandan so‘ng nafaqat milliy, balki jahon estradasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan san’atkorning xotirasiga bag‘ishlab ko‘plab tadbirlar o‘tkazildi, uning kitoblari, qo‘shiqlari jamlangan albomlar, rassom sifatida yaratgan asarlari ko‘rgazmasi taqdimotlari bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, xalqimiz, xususan, yosh avlod ongida milliy estrada orqali milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish asosiy vazifa deb belgilandi. Bu ishlarni respublikamizda yagona hisoblanadigan aynan shu institut amalga oshiradi. O'tgan asrda paydo bo'lib, rivojlanib, taraqqiy etgan estrada janrlari ijtimoiy-ma'naviy hayotimizga shu qadar kirib bordiki, hatto milliy estrada san'atimiz shakllandi. Milliy estrada bugun yurtimiz madaniyati tizimida o'ta muhim o'rin tutmoqda. Chunki u ommaviy san'at turi sifatida ming-minglab kishilarga birday ta'sir ko'rsatib, hamisha insonlarning ruhiy ehtiyojlarini tezkor qondirish qudratiga ega, desak mubolag'a bo'lmaydi. Estrada san'atini rivojlantirish masalalari ko'proq repertuar muammosi hal etilishiga bog'liq.

Mamlakatimizda milliy estradani rivojlantirishga barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilayotgan ekan, shu sohadagi barcha ijodkorlardan xalqimizga manzur bo'ladigan yangi badiiy barkamol qo'shiq va kuylar yaratib, faol ijod qilishlarini kutib qolamiz. O'zbek milliy estrada san'ati boy tarixga ega. "Estrada" tushunchasi kirib kelgunga qadar ham uning turli janr va ko'rinishlari mavjud bo'lib, professional darajada XX asrda shakllangan.

Jumladan, O'zbekiston xalq artisti Tamaraxonim, Usta Olim Komilov kabi san'atkorlar milliy estradaning poydevoriga asos slogan bo'lsa, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov professional estrada san'ati maktabini yaratgan. Mashhur "Yalla" guruhi, Yunus To'raev, Mansur Toshmatov, Nasiba Abdullaeva, Yulduz Usmonova, Kumush Razzaqova, Ozodbek Nazarbekov, Kozim Qayumov kabi ijodkorlar bevosita Botir Zokirov yaratgan milliy estrada maktabi davomchilari bo'lib, uning rivojiga munosib hissa qo'shishgan. Mazkur jarayon o'ziga xos tajriba maydoni, ustoz-shogird an'anasi, estrada san'atining milliy spetsifikasini vujudga keltirib, o'z o'rnida o'rganilishi va tadqiq etilishi, qolaversa, yosh avlodga o'rgatilishi lozim bo'lgan san'at turiga aylandi. Bu holat milliy estrada san'ati sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, professional estrada ta'limini joriy etishga sabab bo'ldi.

70-yillarning boshlariga kelib ommaviy musiqa san'atida yangi yo'nalish - bit-musiqa ommalasha boshlanadi. Orkestr jamoasini faoliyatini saqlagan holda Botir Zokirov va Yunus To'rayevlar hamkorligida "Toshkent myuzik-xoll" ni tashkil topdi. Toshkent myuzik-xolli o'z yo'nalishida adabiy mazmun asosida, dramatik spektakllar orqali qiziqarli, rang-barang konsert dasturlarini tuzish va jamoaviy tarzda namoyish etish maqsadlarini amalga oshiradilar.

Teatrlashtirilgan ssenariylar asosida konsert namoyishlarini tashkil etadilar. Eng muhimi o'zbek estrada musiqasi ijrochiligi amaliyotida vokal-cholg'u

ansamblari tuzila boshlanadi, estrada xonanda va sozandalarining yangi avlodi tarbiyalanadi. Myuzik-xoll yosh xonandalar uchun haqiqiy estrada maktabi vazifasini o'taydi.

E. Salixov, A. Kalvarskiy, E. Qalandarov, G. Xoliqov kabi kompozitorlar bu yo'nalishda samarali ijod qiladilar. Estrada san'atida yangi guruhlar va ijrochilar avlodi shakllanadi. Buning zaminida albatta o'zbek estrada simfonik orkestrlarining samarali faoliyati, respublikada zamonaviy estrada musiqa san'atini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

O'zbek estrada musiqasi shakllanishi jarayonida an'anaviy xalq musiqa namunalari muhim zamin bo'lgan. Bunda, asosan, ularning raqsbopligi, yengil ohang usullarida ijro etilgani qo'l kelgan. Ayni payta bu holat o'zbek estrada musiqasining milliylik asosini ham ta'minlovchi muhim vositalardan biri bo'ldi desak, to'g'ri

O'zbek milliy estrada qo'shiqchiligi tamal toshini qo'ygan Botir Zokirov va uning izdoshlari, zamondoshlari Yunus To'rayev, Staxan Rahimov, Alla Iyoshpe va boshqalar o'zbek estradasi sahnasida milliy va nomilliy kuylash uslubini sintezlashtirish natijasida uni shakllan va mazmunan uyg'unlashtirishga erishganlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan darvdan boshlab yaratilayotgan qo'shiqlar Vatan, Istiqlol, tabiat, do'stlik va muhabbat kabi mavzularda yozilgan.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov raisligida Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi tuzildi. Kengash badiiy-musiqiy jamoalar oldiga bir qancha asosiy vazifalar va talablar qo'ydi.

Qo'shiqlarda aks etgan milliylik g'ururi, Vatanga sadoqat, milliy ohanglar tinglovchilar qalbida Vatan tuyg'usini yanada jo'sh urishiga zamin bo'lmoqda.

Yulduz Usmonovanning "Dunyo", "O'zbekiston", "Xalqim", Nilufar Rahmatovanning "O'zbek elim", marhum Nuriddin Haydarovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", Sevara Nazarxoning "Vatanim", Gulsanam Mamazoitovanning "O'zbekiston-ona tuproq" kabi qo'shiqlari, mustaqillik davrining o'ziga xos, yangicha talqindagi vatanparvarlik mavzusini barpo qildi. Bu mavzu san'atda eng qadimdan ulug'lanib kelgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda nafaqat tub siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar, balki san'at, madaniyat va jamoatchilik ongida ham jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Hozirgi vaqtda o'zbek badiiy madaniyatida estrada musiqasi alohida o'ringa ega. Telekommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi estrada musiqasiga qiziqishning ortishiga sabab bo'ldi. Yoshlar, ayniqsa, o'smir yoshdagilar haqiqiy san'atni soxtasidan ajrata

olmaydilar va natijada ushbu shubhali sifatdagi musiqiy asarlar yosh avlod tomonidan osongina qabul qilinishiga olib keladi.

Hozirgi kunda estrada mafkura o‘rnini ma’lum darajada egallab, yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazishning samarali usuliga aylandi. Oxirgi o‘n yilliklarda tadqiqotchilar va olimlar tomonidan san’atning ushbu turiga, estrada musiqasining shakllanish tarixi, kelib chiqishi, terminologik va nazariy masalalariga qiziqish ortdi; uning o‘zbek va jahon badiiy madaniyatida, umuman madaniyat va san’atdagi o‘rni va rolini aniqlashga harakat qilmoqda.

Bugungi kunga qadar yaratilgan estrada asarlarining hajmi katta musiqiy qatlam bo‘lib, u odatda bir tomondan musiqa san’ati hodisasi, ikkinchi tomondan esa ommaviy madaniyat hodisasi sifatida qaraladi. Ommaviy musiqa, ommaviy madaniyat, klassik musiqa san’ati tushunchalari bu yerda shu qadar o‘zaro chambarchas o‘zaro bog‘langanki, ba’zida birini ikkinchisidan aniq ajratib bo‘lmaydi. Yaqin vaqtgacha o‘zbek musiqa fanlar akademiyasi estrada (mashhur, ommaviy) musiqasini jiddiy ijod sifatida qabul qilmagan. Musiqashunoslik uchun bu yo‘nalish, go‘yo mavjud emas edi.

O‘rta va oliy ta’lim musiqa ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar, musiqashunoslik jurnallarida musiqiy estrada mavzusiga oid ma’lumotlar va ilmiy nashrlar arzimas miqdorda bo‘lgan. So‘nggi bir necha o‘n yilliklar ichida butun insoniyat tarixida musiqaning omma ongida eng katta transformatsiya sodir bo‘ldi. Ushbu jarayonni ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlar XX asrda sodir bo‘lgan shunga o‘xshash jarayonlarga xos bo‘lib san’atning deyarli barcha turlarida jumladan individual hamda ijtimoiy faoliyat sohalarida-ommaviy madaniyatning o‘ziga xos kengayishi kuzatildi.

Bir so‘z bilan aytganda o‘zbek milliy estradasi yana o‘sha shukuhli davrlardagi kabi o‘zbek tinglovchilari yuragidan joy oladimi yoki shu yo‘sinda davom etadimi buni vaqt ko‘rsatadi. Ammo yosh xonandalarimiz shunchaki havaskormi yoki ijodkor, shou biznes vakili yoki san’atkor mavqe’ini egallashi birqator tamoyillarga bog‘liqdir. Shuni ta’kidlash joizki estrada ijodkorlarimiz, sa’natkorlarimiz o‘z qo‘shiqdari barkamolligi ustida yanada ko‘proq ishlashi milliylik va albatta jonli ijroga ko‘proq ahamiyat berish kerak.

Professional ijodkorlar yordamida ashularini qayta ishlab chiqishi darkor. 80-90 yillar estradasining hozirgi zamonaviy estradadan farqi undagi tafovut shundan iboratki ilk estrada namoyondalari qo‘shiqlarining milliyligiga sarmazmunligiga, orombaxsh ekanligiga alohida e’tibor qaratgan. Zero, san’atning har qanday jabhasi inson tafakkuri mahsuli sifatida tinimsiz harakat va o‘zgarishlarga uchraydi. Unga zamon va makon o‘z ta’sirini ko‘rsatar ekan o‘z

oʻrnida Estrada ijrochiligi ham yoshlarimizning qolaversa jamiyat hayotining inʼikosi boʻlib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA OʻQUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
2. Mannopov, S., Karimov, A., Ataboeva, S., Ergashev, A., & Usmanova, S. (2021). Development Of Symphonic Music in Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 53-56.
3. Ergashev, A., Ataboyeva, S., Djalalova, N., & Usmonova, S. (2021). THE ROLE OF COMPOSERY IN THE ART OF NATIONAL SINGING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 863-867.
4. Ergashev, A., Ataboyeva, S., Djalalova, N., & Usmonova, S. (2021). THE ROLE OF COMPOSERY IN THE ART OF NATIONAL SINGING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 863-867.
5. Kurbanova, B., Khurshid, M., & Tokhirjon, S. (2022, May). THE ROLE AND IMPORTANCE OF A SYSTEMATIC APPROACH TO TEACHING IN THE FINE ARTS. In *Archive of Conferences* (pp. 105-107).